



HUQUQ, ARXIV VA DAVLAT XIZMATLARI
SOHALARIDA KASBIY MALAKALARNI
RIVOJLANTIRISH BO'YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART SUD-EKSPERTLIK FAOLIYATI



“Sud-ekspertlik faoliyati” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Huquq, arxiv va davlat xizmatlari sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo’yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Sud-ekspertlik faoliyati

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0131



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu kasbiy standart – Davlat sud ekspertizasi tizimida faoliyat yurituvchi davlat sud ekspertlari va ekspert-stajyorlarning kasbiy faoliyatini tartibga solish, baholash va rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Kasbiy standart sud ekspertlarining ilmiy va amaliy tayyorgarligi, malaka oshirish, mehnat intizomi, kasb etika qoidalariga rioya qilish hamda ekspertiza natijalarining sifat va ishonchliligini ta'minlashga doir barcha faoliyat jarayonlarini qamrab oladi.

Shuningdek, ushbu kasbiy standart ekspert-stajyorlarning tayyorgarlik jarayoni, individual o'quv rejalari, amaliy mashg'ulotlar, rahbar nazorati ostida bajariladigan vazifalar hamda malaka-ekspert komissiyasida imtihon topshirish jarayonlarini tartibga solish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

amaliy tayyorgarlik – ekspert-stajyorning laboratoriya, bo'lim yoki sud ekspertizasi muassasasida rahbar nazorati ostida bajariladigan amaliy ish va tadqiqot mashg'ulotlari;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

baholash mezonlari – ekspert va ekspert-stajyorning faoliyatini hamda malakasini aniqlash uchun belgilangan talablar va indikatorlar to'plami;

davlat sud-ekspertiza muassasasi – sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirish uchun tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan muassasa, shuningdek, tegishli davlat organlari, vazirliklar va idoralar tizimidagi ixtisoslashtirilgan sud ekspertizasi bo'linmalari;

ekspert-stajyor – sud ekspertining rahbarligi ostida hamda individual o'quv reja asosida amaliy tayyorgarlikdan o'tuvchi shaxs;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

individual o'quv rejasi – ekspert-stajyorning amaliy tayyorgarligi va malaka oshirish jarayonini tartibga soluvchi shaxsiy o'quv rejasi;

ish materiallari – sud ekspertizasi tayinlangan fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat ishi (shu jumladan, tergovga qadar tekshiruv materiallari), ma'muriy sud ishlari va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar, shuningdek, advokatning so'rovi hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari yuzasidan to'plangan hujjatlar;

kasb etika qoidalari – sud ekspertizasi sohasida ekspert va ekspert-stajyorlarning professional axloq, maxfiylik, halollik va xolislik tamoyillariga rioya qilish qoidalari;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

kasbiy kompetensiya – sud ekspertining o'z mutaxassisligi bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, malakasi va tajribasini ifodalovchi umumiy salohiyat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va (yoki) aqliy jihatdan bajarish;

layoqat – ekspert yoki ekspert-stajyorning o'z kasbiy faoliyatini mustaqil va sifatli bajarish qobiliyati, bilim va malaka darajasi;

malaka-ekspert komissiyasi – davlat sud ekspertizasi tizimida ekspertlarning malakasini baholash va attestatsiyadan o'tkazish bilan shug'ullanuvchi maxsus tuzilma;

sud-ekspertlik faoliyati – sud ekspertizasini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha faoliyat;

sud ekspertizasi – fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma'muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o'tkazish va xulosa berishdan iborat bo'lgan protsessual harakat;

sud eksperti – xulosa berish uchun fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan, belgilangan tartibda sud eksperti sifatida jalb qilingan jismoniy shaxs;

sud ekspertizasi tadqiqoti – fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat, ma'muriy sud ishlari va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish holatlarini aniqlashga va sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi maxsus bilimlar asosida tadqiqotlarni o'tkazish va xulosa berishga hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida amalga oshiriladigan hamda natijasi bo'yicha mutaxassis fikri taqdim etilishiga qaratilgan faoliyat;

sud eksperti (sud ekspertlari)ning xulosasi – sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tomonidan tuziladigan va tadqiqotlar olib borilishini va ularning natijalarini aks ettiradigan yozma yoki elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan elektron shakldagi hujjat.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 1-iyundagi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi 249-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6256-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4125-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 16-dekabrdagi "Davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 300-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi 369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi "Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risida" 73-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Namunaviy Nizom;

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Sud-ekspertlik faoliyati	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Sud-ekspertlik faoliyati sohasida sud ekspertining malaka darajasi, kompetentligi, mehnat mazmuni, sifati va shart-sharoitlariga qo'yiladigan talablarni belgilash uchun mo'ljallangan.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	P seksiyasi: Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot 84. Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot 84.2 Davlat tomonidan umuman jamiyatga xizmatlar ko'rsatish 84.23 Adliya va sud sohasidagi faoliyat 84.23.0 Adliya va sud sohasidagi faoliyat	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Ushbu standart sud ekspertizalarini (tadqiqotlari) o'tkazish huquqiga ega bo'lgan sud ekspertlari, sud ekspertizasi organining malaka va kompetentlik darajasiga, mehnat mazmuni, sifati va shart-sharoitlariga, shu jumladan litsenziya asosida sud-ekspertlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga qo'yiladigan talablarni belgilaydi	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		26199005 Sud ekspert-stajyor	6
		26199004 Sud ekspert-mutaxassisi (ekspert)	6

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	26199005- Sud ekspert-stajyor	A1.6	Har bir tarkibiy laboratoriya (bo'lim) da tegishli ekspertlik mutaxassisligi bo'yicha amaliy va nazariy tayyorgarlikdan o'tish	A1.01.6	Tasdiqlangan namunaviy rejalarga muvofiq tayyorgarlik (stajirovka) bosqichlarini rejalashtirish va amalga oshirish
				A1.02.6	Sud ekspertizasi faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va metodik materiallarni o'rganish hamda faoliyatda qo'llash
		A2.6	Sud ekspertizasi obyektlarini dastlabki tadqiq etish va ekspert tekshiruvlarini amalga oshirish ko'nikmalarini egallash	A2.01.6	Rahbar ekspert nazorati ostida sud ekspertizasi obyektlarini ko'zdan kechirish va ularning identifikatsion belgilarini aniqlashda ishtirok etish
				A2.02.6	Sud ekspertizasi tadqiqotlari uchun zarur namunalarni olish, rasmiylashtirish va saqlash jarayonlarida ishtirok etish
2	26199004- Sud ekspert- mutaxassisi (ekspert)	B1.6	Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish	B1.01.6	Qonunchilikda belgilangan tartibda sud ekspertizasi predmetiga oid ish materiallari bilan tanishish, ulardan zarur ma'lumotlarni yozib olish yoki ko'chirma nusxalar olish
				B1.02.6	Sud ekspertizasini o'tkazish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar va tekshirish obyektlarini taqdim etish to'g'risida iltimosnomalar kiritish
				B1.03.6	Tadqiqot obyektlarini (ashyoviy, yozma, raqamli dalillar va hujjatlarni) ko'zdan kechirish hamda namunalarni olish
				B1.04.6	O'ziga taqdim etilgan tekshirish obyektlarini har tomonlama va to'liq tekshirish
		B2.6	Sud ekspertizasi xulosasini tuzish va rasmiylashtirish	B2.01.6	Olib borilgan tadqiqot natijalarini tahlil qilish hamda umumlashtirish
				B2.02.6	Qo'yilgan savollar yuzasidan asoslantirilgan ekspert xulosasini shakllantirish
				B2.03.6	Sud ekspertiza xulosasini qonunchilik va metodik talablar asosida rasmiylashtirish

		B3.6	Ilmiy tadqiqot ishlarida ishtirok etish va tadqiqot natijalarini ekspertlik amaliyotiga tatbiq qilish	B3.01.6	Ekspertlik amaliyotida aniqlangan muammolar asosida ilmiy-tadqiqot mavzulari bo'yicha takliflar ishlab chiqish
				B3.02.6	Mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etish
				B3.03.6	Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari yuzasidan metodik tavsiyalar hamda uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish
				B3.04.6	Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini tahlil qilish, umumlashtirish va amaliyotga tatbiq etish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Sud ekspert-stajyor
Mashg'ulot nomining kodi:	26199
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash markazida tavsiya etilmaydi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Maxsus ruxsatlar: Qonun hujjatlariga muvofiq mehnat qilish huquqiga ega bo'lishi Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi Ishga munosabat va xulq-atvor: - kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - o'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millati va vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish. Oliy ma'lumotga, alohida hollarda esa o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga ega bo'lish, muayyan sud-ekspert ixtisosligi bo'yicha keyingi tayyorgarlikdan o'tgan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi, mas'uliyatlilik, intizom, jamoada ishlash, muloqot, xavfsizlik madaniyati, muammoni hal qilish, mustaqil ishlash, mas'uliyat va halollik, professionallik
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Bakalavriat

Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	O'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba; Ish joyida tashkillashtiriladigan trening, seminar, o'quv kurslari, shuningdek, o'z faoliyat yo'nalishi bo'yicha Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot institutida bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishlari	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	6	Yuriskonsult
	6	Yurist
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.6- Har bir tarkibiy laboratoriya (bo'lim) da tegishli ekspertlik mutaxassisligi bo'yicha amaliy va nazariy tayyorgarlikdan o'tish	A1.01.6- Tasdiqlangan namunaviy rejalarga muvofiq tayyorgarlik (stajirovka) bosqichlarini rejalashtirish va amalga oshirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		Tasdiqlangan namunaviy rejalarda va stajirovka o'tash tartibi bilan tanishish
		Stajirovka dasturida nazarda tutilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar jadvalini o'rganish
		Stajirovka davrida bajarilishi lozim bo'lgan ishlar va topshiriqlar ketma-ketligini rejalashtirish
		Tarkibiy laboratoriya (bo'lim) faoliyati va ish jarayonlari bilan tanishish
		Tasdiqlangan namunaviy rejada nazarda tutilgan amaliy mashg'ulotlar va kuzatuv tadbirlarida ishtirok etish
		Rahbar ekspert tomonidan berilgan topshiriqlarni stajirovka rejasiga muvofiq bajarish
		Stajirovka davomida bajarilgan ishlar bo'yicha hisobot hujjatlarini yuritish
		Stajirovka yakunlari bo'yicha hisobot va boshqa zarur hujjatlarni rasmiylashtirish
		Ko'nikmalar:
		Stajirovka dasturi va namunaviy rejalardagi vazifalarni tahlil qilish
		Analitik fikrlash va ma'lumotlarni tizimlashtirish
		Tarkibiy laboratoriya (bo'lim) faoliyati va ish jarayonlarini kuzatish
		Kasbiy faoliyatga oid ma'lumotlarni yig'ish
		Rahbar ekspert ko'rsatmalarini qabul qilish va amaliy faoliyatda qo'llash
		Bilimlar:
		Stajirovka o'tash tartibi, maqsadlari va vazifalari
		Tasdiqlangan namunaviy rejalarda va stajirovka dasturlarining mazmuni

		Sud ekspertizasi muassasasining tashkiliy tuzilmasi hamda tarkibiy laboratoriyalar (bo'limlar) faoliyati
		Stajirovka jarayonini tashkil etish va rejalashtirish tamoyillari
		Hisobot va xizmat hujjatlarini yuritish hamda rasmiylashtirish tartibi
		Ichki mehnat tartibi qoidalari, kasbiy etika va xizmat intizomi talablari
	A1.02.6- Sud ekspertizasi faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va metodik materiallarni o'rganish hamda faoliyatda qo'llash	Mehnat harakatlari:
		1. Sud-ekspertlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish
		2. Jinoyat, fuqarolik va ma'muriy iqtisodiy ishlar bo'yicha ekspertiza tayinlash tartibini o'rganish va tahlil qilish
		3. Sohaga oid qonunlar, qarorlar, yo'riqnomalar va standartlarni tizimlashtirish
		4. Sud ekspertizasi sohasidagi xalqaro tajriba va ilg'or amaliyotlarni o'rganish
		5. Normativ-huquqiy hujjatlardagi o'zgartirish va qo'shimchalarni muntazam kuzatib borish
		6. Ichki idoraviy hujjatlar va metodik ko'rsatmalar bilan ishlash
		7. Sud ekspertizasi faoliyatida qo'llaniladigan elektron hujjat aylanishi tizimlari bilan ishlash
		Ko'nikmalar:
		Normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash va ularni tahlil qilish
		Huquqiy normalarni to'g'ri talqin qilish va amaliyotda qo'llash
		Axborotni tizimlashtirish va umumlashtirish
		O'zgarishlarni tezkor aniqlash va ularga moslashish
		Huquqiy hujjatlar asosida xulosa chiqarish
		Kasbiy faoliyatda qonuniylikni ta'minlash
		Elektron huquqiy bazalar va axborot tizimlaridan foydalanish
		Bilimlar:
		Sud-ekspertlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari
		Jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual va ma'muriy qonunchilik asoslari
		Sud ekspertizasini tayinlash va o'tkazish tartibi
		Dalillar nazariyasi va ekspert xulosasining o'rni
		Sohaga oid standartlar, metodik ko'rsatmalar va yo'riqnomalar
		Sud ekspertizasi sohasida qo'llaniladigan xalqaro normalar, standartlar va ilg'or amaliyotlarning asoslari

		Huquqiy hujjatlar iyerarxiyasi va ularning amal qilish doirasi
		Sud ekspertizasi sohasidagi axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarining ishlash tamoyillari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Stajirovka dasturi va tasdiqlangan namunaviy rejalarda belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olish
		2. Sud ekspertizasi faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, metodik materiallar hamda ichki tartib-qoidalarga qat'iy rioya qilish uchun javobgarlikni ta'minlash
		3. Xizmat ma'lumotlari, ekspertiza materiallari va hujjatlarining maxfiyligini ta'minlash va ulardan foydalanish tartibiga rioya qilish
		4. Mehnatni muhofaza qilish, texnika xavfsizligi va xizmat intizomi talablariga rioya etish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish
		5. Tasdiqlangan stajirovka dasturi va rahbar ekspert ko'rsatmalari asosida nazariy va amaliy tayyorgarlik tadbirlarida faol va mustaqil ishtirok etish
		6. Oddiy va boshlang'ich darajadagi laboratoriya amallarini belgilangan tartib va metodikaga muvofiq mustaqil bajarish
		7. Muammoli va noaniq vaziyatlarda dastlabki asoslangan yechimlarni taklif etish hamda ularni muhokama qilishda ishtirok etish
		8. O'rganilgan metod va tartiblarni amaliy faoliyatda qo'llashda tashabbus ko'rsatish
		9. O'z kasbiy bilim va ko'nikmalar darajasini mustaqil baholash hamda ularni rivojlantirishga intilish
		10. Qaror qabul qilish jarayonida ehtiyotkorlikni saqlash va har bir harakatni asoslangan yondashuvga tayangan holda amalga oshirish
A2.6- Sud ekspertizasi obyektlarini dastlabki tadqiq etish va ekspert tekshiruvlarini amalga oshirish ko'nikmalarini egallash	A2.01.6- Rahbar ekspert nazorati ostida sud ekspertizasi obyektlarini ko'zdan kechirish va ularning identifikatsion belgilarini aniqlashda ishtirok etish	Mehnat harakatlari:
		1. Sud ekspertizasiga taqdim etilgan obyektlarni qabul qilish va dastlabki ko'zdan kechirishda ishtirok etish
		2. Obyektlarning tashqi ko'rinishi, holati va individual belgilarini aniqlash hamda qayd etishda qatnashish.
		3. Obyektlarni foto va videotasvirga olish hamda ularni rasmiylashtirish jarayonlarida ishtirok etish
		4. Obyektlarning butligi va saqlanganlik holatini tekshirishda qatnashish
		5. Rahbar ekspert topshirig'iga muvofiq ko'zdan kechirish natijalarini hujjatlashtirishda ishtirok etish
		Ko'nikmalar:
		Sud ekspertizasi obyektlarini vizual ko'zdan kechirish

		Obyektlarning identifikatsion belgilarini aniqlash va tavsiflash
		Texnik vositalardan foydalanib obyektlarni qayd etish
		Ko'zdan kechirish natijalarini hujjatlashtirish
		Obyektlar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Sud ekspertizasi obyektlarini ko'zdan kechirish metodlari
		Obyektlarning identifikatsion va diagnostik belgilari
		Ashyoviy dalillar bilan ishlash tartibi
		Sud ekspertizasi faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar
		Foto va videofiksatsiya usullari hamda texnik vositalari
	A2.02.6- Sud ekspertizasi tadqiqotlari uchun zarur namunalarni olish, rasmiylashtirish va saqlash jarayonlarida ishtirok etish	Mehnat harakatlari:
		1. Ekspert tadqiqotlari uchun zarur namunalarni olish jarayonlarida qatnashish
		2. Namunalarni markalash, qadoqlash va ro'yxatga olish ishlarini bajarishda ishtirok etish
		3. Namunalarni saqlash va tashish talablariga rioya etilishini ta'minlashda qatnashish
		4. Namunalar bo'yicha tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishda ishtirok etish.
		5. Olingan namunalarning butligi va haqiqiyligini nazorat qilishda qatnashish
		Ko'nikmalar:
		Turli xil ekspertiza obyektlaridan namunalar olish
		Namunalarni qadoqlash va markalash
		Namunalarni hisobga olish va ro'yxatdan o'tkazish
		Namunalarni saqlash qoidalariga rioya qilish
		Namunalar bilan ishlashda protsessual talablarni qo'llash
		Bilimlar:
		Namunalar olish tartibi va metodikasi
		Namunalarni qadoqlash va saqlash talablari
		Ekspert tadqiqotlari uchun namunalar turlari
		Namunalar bilan ishlashga oid protsessual normalar.
		Biologik, kimyoviy va boshqa obyektlar bilan ishlash xavfsizligi qoidalar
	Mas'uliyat mustaqillik: va	1. Sud ekspertizasi obyektlari va namunalarning butligi, saqlanishi hamda ular bilan ishlashning belgilangan tartiblariga qat'iy rioya etilishi uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olish
		2. Ekspert tadqiqotlari jarayonida olingan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash va ularni belgilangan tartibda himoya qilish

		3. Tasdiqlangan metodika va rahbar ekspert koʻrsatmalari asosida obyektlarni dastlabki koʻrikdan oʻtkazish va tayyorlov ishlari jarayonida ishtirok etish 4. Oddiy ekspert tekshiruvlarini belgilangan tartib va metodik talablar asosida mustaqil bajarish 5. Oʻrganilgan usullarni amaliyotda qoʻllashda aniqlik va ehtiyotkorlikni taʼminlash hamda natijalarni toʻgʻri qayd etish
Texnik va/yoki texnologik talablar:		Zamonaviy sud-ekspertlik faoliyatida qoʻllaniladigan laboratoriya uskunalari va texnik vositalari Oʻlchov aniqligi yuqori boʻlgan asbob-uskunalar Asbob-uskunalarining texnik holatining nazorati va ularni toʻgʻri ekspluatatsiyasi Sud ekspertizasiga oid maʼlumotlarni qayta ishlash uchun zamonaviy dasturiy taʼminotlari Ekspertlik yoʻnalishiga mos ravishda maxsus laboratoriya texnologiyalari Ekspertiza jarayonida namunalarni olish, saqlash va qayta ishlash texnologiyalari Ekspert xulosasini tayyorlashdagi texnik vositalar

Kasbning nomi:	Sud ekspert-mutaxassisi (ekspert)
Mashg'ulot nomining kodi:	26199
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash markazida tavsiya etilmaydi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Maxsus ruxsatlar: Qonun hujjatlariga muvofiq mehnat qilish huquqiga ega bo'lishi Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi Ishga munosabat va xulq-atvor: - kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - o'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millati va vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish. Oliy ma'lumotga, alohida hollarda esa o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga ega bo'lish, muayyan sud-ekspert ixtisosligi bo'yicha keyingi tayyorgarlikdan o'tgan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi, mas'uliyatlilik, intizom, jamoada ishlash, muloqot, xavfsizlik madaniyati, muammoni hal qilish, mustaqil ishlash, mas'uliyat va halollik, professionallik
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Bakalavriat
Norasmiiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	O'rta maxsus professional ta'lim va amaliy tajriba;

	Ish joyida tashkillashtiriladigan trening, seminar, o'quv kurslari, shuningdek, o'z faoliyat yo'nalishi bo'yicha Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot institutida bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishlari	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	-	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	7	Prokuror
	7	Advokat
	7	Sudya
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.6- Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish	B1.01.6- Qonunchilikda belgilangan tartibda sud ekspertizasi predmetiga oid ish materiallari bilan tanishish, ulardan zarur ma'lumotlarni yozib olish yoki ko'chirma nusxalar olish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Sud ekspertizasi predmetiga oid ish materiallarini qabul qilish va ularning to'liqligi hamda yaxlitligini tekshirish
		2. Ekspertiza predmeti doirasida ish hujjatlari bilan tizimli ravishda tanishish
		3. Tadqiqot uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash va ajratib olish
		4. Zarur ma'lumotlarni yozib olish, konspekt qilish yoki belgilash
		5. Qonunchilikka muvofiq tartibda hujjatlardan ko'chirma nusxalar olish
		6. Olingan ma'lumotlarni tartibga solish va tizimlashtirish
		7. Ish materiallarining maxfiylikni ta'minlash va ularni saqlash qoidalariga rioya qilish
		8. O'rganilgan ma'lumotlar asosida dastlabki tahlil o'tkazish
		9. Zarurat tug'ilganda qo'shimcha materiallar so'rash uchun asos tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		Sud ekspertizasiga oid hujjatlar bilan ishlash va ularni tezkor tahlil qilish
		Sud ekspertizasi uchun muhim ma'lumotlarni ajratib olish va tizimlashtirish
		Sud ekspertizasi faoliyatiga oid huquqiy va texnik matnlarni tushunish va talqin qilish
		Sud ekspertizasi materiallari bo'yicha yozma qaydlar, konspektlar va xizmat yozuvlarini tayyorlash
		Sud ekspertizasi faoliyatida maxfiy axborot va xizmat ma'lumotlari bilan ishlash

		Ekspertiza materiallarini o'rganishda e'tibor, sinchkovlik va aniqlik bilan ishlash
		Ekspertiza materiallarini tahlil qilish va dastlabki xulosalar chiqarish
		Sud ekspertizasi faoliyatida elektron va qog'oz shakldagi hujjatlar bilan ishlash
		Bilimlar:
		Sud ekspertizasi faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari
		Sud ekspertizasiga oid ish materiallari bilan tanishish tartibi va protsessual talablari
		Sud ekspertizasida qo'llaniladigan dalillar nazariyasi va ularning turlari
		Sud ekspertizasiga oid hujjatlar bilan ishlash va arxivlash qoidalari
		Sud ekspertizasi faoliyatida axborot maxfiyligi va ma'lumotlarni himoya qilish talablari
		Tegishli ekspertlik mutaxassisligi bo'yicha ekspert tadqiqotlarini o'tkazishning nazariy asoslari, amaliy usullari va metodikalari
		Rasmiy hujjatlarning tuzilishi va mazmuni
		Mehnat harakatlari:
		1. Sud ekspertizasiga taqdim etilgan ish materiallarini tahlil qilib, ularning yetarliligini baholash
		2. Ekspertiza o'tkazish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar va obyektlarni aniqlash
	B1.02.6- Sud ekspertizasini o'tkazish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar va tekshirish obyektlarini taqdim etish to'g'risida iltimosnomalar kiritish	3. Ekspertiza uchun yetishmayotgan ma'lumotlar va obyektlar ro'yxatini shakllantirish
		4. Iltimosnoma tayyorlash zaruratini ilmiy va protsessual jihatdan asoslash
		5. Qonunchilik talablariga muvofiq iltimosnoma tayyorlash
		6. Iltimosnomada aniq savollar, talab qilinadigan obyektlar va ularning ahamiyatini ko'rsatish
		7. Iltimosnoma ijrosini kuzatish va kelib tushgan materiallarni qabul qilish
		Ko'nikmalar:
		Ish materiallarini tanqidiy tahlil qilish va yetishmovchiliklarni aniqlash
		Ekspertiza masalalari yuzasidan ilmiy asoslangan xulosa chiqarish
		Rasmiy hujjatlar (iltimosnoma)ni to'g'ri va asosli tuzish
		Normativ-huquqiy hujjatlar talablarini ekspertlik faoliyatida qo'llash
		Kasbiy masalalar bo'yicha fikrlarni aniq, mantiqiy va asosli bayon etish

		Ekspertiza jarayonidagi ishtirokchilar bilan xizmat doirasida muloqot qilish
		Ekspertiza uchun ahamiyatli axborotlarni tizimlashtirish va hujjatlashtirish
		Ekspertiza uchun zarur materiallar va obyektlarning kelib tushish jarayonini nazorat qilish va kuzatib borish
		Bilimlar:
		Sud ekspertizasini tayinlash va o'tkazishning protsessual asoslari
		Ekspertning qo'shimcha materiallar va tekshirish obyektlarini talab qilish huquqi hamda tartibi
		Ekspertning huquq va majburiyatlari (jumladan, iltimosnoma berish huquqi)
		Jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy ishlar bo'yicha ekspertiza materiallari bilan ishlash tartibi
		Xizmat va protsessual hujjatlarni tayyorlash hamda rasmiylashtirish qoidalari
		Sud ekspertizasini o'tkazish uchun zarur materiallar va obyektlarning yetarililigini baholash mezonlari
		Sud ekspertizasi faoliyatiga oid rasmiy hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi
		Sud ekspertizasi materiallarining maxfiyligi va ularni himoya qilish talablari
B1.03.6- Tadqiqot obyektlarini (ashyoviy, yozma, raqamli dalillar va hujjatlarni) ko'zdan kechirish hamda namunalari olish		Mehnat harakatlari:
		1. Ekspertizaga taqdim etilgan dalillar va hujjatlarni qabul qilish, ularning yaxlitligi va muhrlanganligini tekshirish
		2. Ashyoviy, yozma va raqamli obyektlarni dastlabki ko'zdan kechirish
		3. Tekshirish obyektlarning holati, xususiyatlari va belgilari haqida qaydlar kiritish
		4. Ko'zdan kechirish jarayonini foto, video yoki yozma tarzda hujjatlashtirish
		5. Ekspertiza turidan kelib chiqib, namunalari olish zaruratini aniqlash
		6. Namunalarni olishda protsessual va metodik talablarni ta'minlash
		7. Olingan namunalarni to'g'ri markirovka qilish, qadoqlash va ro'yxatdan o'tkazish
		8. Ekspertiza turidan kelib chiqqan xolda kontaminatsiya va buzilishning oldini olish choralarini ko'rish
		9. Olingan namunalarni belgilangan tartibda saqlash
		Ko'nikmalar:
		Tekshirish obyektlari va dalillarni sinchkovlik bilan ko'zdan kechirish va tahlil qilish
		Obyektlarning muhim belgi va xususiyatlarni aniqlash

		Ekspertiza turidan kelib chiqib namunalarni to'g'ri va xavfsiz olish
		Ekspertiza tadqiqotlarida qo'llaniladigan laboratoriya jihozlari va texnik vositalardan foydalanish
		Ko'zdan kechirish va namunalar olish natijalarini hujjatlashtirish
		Ekspertiza materiallari va ma'lumotlarini tizimlashtirish va saqlash
		Ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazishda maxfiylik va ehtiyotkorlik bilan ishlash
		Ekspertiza jarayonida raqamli dalillar bilan ishlash (asosiy darajada)
		Bilimlar:
		Sud ekspertizasida qo'llaniladigan ashyoviy, yozma, raqamli dalillar turlari va ularning xususiyatlari
		Sud ekspertizasi obyektlarini ko'zdan kechirish tartibi va metodikasi
		Ekspert tadqiqotlari uchun namunalar olish qoidalari va standartlari
		Ekspertiza obyektlari va namuna dalillarni saqlash, qadoqlash va tashish talablari
		Ekspertiza jarayonida kontaminatsiya va degradatsiya xavflari
		Raqamli dalillar bilan ishlash asoslari
		Sud ekspertizasi faoliyatida hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi
		Mehnat xavfsizligi va texnika xavfsizligi qoidalari
	B1.04.6- O'ziga taqdim etilgan tekshirish obyektlarini har tomonlama va to'liq tekshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Tekshirish obyektlarini qabul qilish, ularning yaxlitligi va hujjatlariga mosligini tekshirish
		2. Ekspertiza predmeti va qo'yilgan savollarni tahlil qilish
		3. Obyektlarni dastlabki ko'zdan kechirish va muhim belgilarini aniqlash
		4. Tanlangan metodika asosida laboratoriya va instrumental tadqiqotlar o'tkazish
		5. Olingan natijalarni qayd etish, hujjatlashtirish va tizimlashtirish
		6. Natijalarni o'zaro solishtirish va tahlil qilish
		7. Zarurat bo'lsa, qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish yoki qo'shimcha materiallar so'rash
		Ko'nikmalar:
		Analitik va tizimli fikrlash
		Tadqiqot metodlarini to'g'ri tanlash va qo'llash
		Obyektlarni chuqur tahlil qilish va baholash
		Laboratoriya va texnik vositalardan samarali foydalanish
		Natijalarni qayd etish va interpretatsiya qilish

		Dalillarni solishtirish va umumlashtirish
		Xatoliklarni aniqlash va oldini olish
		Mustaqil qaror qabul qilish
		Bilimlar:
		Sud ekspertizasining nazariy asoslari
		Tegishli ekspertiza turi bo'yicha tekshirish obyektlarining xususiyatlari, ularni tadqiq etishning ilmiy asoslari, metodlari va amaliy usullari
		Tadqiqot metodlari va ularning imkoniyatlari
		Ekspertiza o'tkazish metodikasi va bosqichlari
		Dalillarni baholash va tahlil qilish asoslari
		Xatoliklar va ularning oldini olish usullari
		Natijalarni rasmiylashtirish tartibi
		Zamonaviy ilmiy-texnik vositalar va texnologiyalar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Sud ekspertisasi tadqiqotlarini tasdiqlangan metodikalar va normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshirish uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olish
		2. Ekspertiza obyektlari bilan ishlash jarayonida o'z vakolati doirasida mustaqil qarorlar qabul qilish hamda ularning natijalari uchun javobgarlikni ta'minlash
		3. Vakolat doirasidan chiqmagan holda faoliyat yuritish va murakkab yoki noaniq holatlarda ustoz-ekspert yoki rahbar mutaxassis bilan maslahatlashish
		4. Xizmat sirini va ekspertiza ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish
		5. Oddiy va standart tadqiqot bosqichlarini belgilangan metodika asosida mustaqil bajarish
		6. Murakkab va yuqori mas'uliyat talab etiladigan bosqichlarda tajribali ekspert nazorati ostida ishlash zarurligini inobatga olish va unga rioya qilish
B2.6- Sud ekspertisasi xulosasini tuzish va rasmiylashtirish	B2.01.6- Olib borilgan tadqiqot natijalarini tahlil qilish hamda umumlashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Tadqiqot jarayonida olingan barcha natijalarni yig'ish va tartibga solish
		2. Natijalarni bir tizimga keltirish (jadval, sxema, tavsiflar shaklida)
		3. Turli bosqichlarda olingan ma'lumotlarni o'zaro solishtirish
		4. Natijalarning izchilligi va mantiqiy bog'liqligini tekshirish
		5. Aniqlangan faktlar asosida umumiy xulosalar shakllantirish
		Ko'nikmalar:
		Tadqiqot natijalarini tahlil qilish va tizimli baholash
		Olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va strukturalash

		Dalillar va tadqiqot natijalarini o'zaro solishtirish va baholash
		Tadqiqot natijalari asosida mantiqiy xulosa chiqarish
		Murakkab ma'lumotlarni sodda va aniq ifodalash
		Tadqiqot natijalaridagi xatolik va nomuvofiqliklarni aniqlash
		Ekspert tadqiqotlari natijalarini yozma va ilmiy asosda bayon qilish
		Bilimlar:
		Sud ekspertizasida tadqiqot natijalarini baholash asoslari
		Dalillarni tahlil qilish va umumlashtirish metodlari
		Mantiq va ilmiy xulosa chiqarish prinsiplari
		Tegishli ekspertiza turi bo'yicha tadqiqot natijalarini tahlil qilish, baholash va umumlashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari
		Ekspert xulosasini tuzish tartibi va talablari
		Statistik va analitik usullar
		Xatoliklar turlari va ularni bartaraf etish yo'llari
		Mehnat harakatlari:
		1. Ekspertiza tayinlash haqidagi hujjat va unda qo'yilgan savollarni diqqat bilan o'rganish
		2. Tadqiqot natijalarini ekspertiza savollar kesimida tizimlashtirish
		3. Har bir savol bo'yicha tegishli dalillar va ilmiy asoslarni aniqlash
		4. Olingan natijalarni tahlil qilish va ularni ilmiy jihatdan baholash
		5. Qarama-qarshi yoki noaniq holatlarni aniqlash va izohlash
		6. Har bir savolga aniq, tushunarli va asoslangan javob shakllantirish
		7. Xulosa matnini belgilangan tartibda rasmiylashtirish
		Ko'nikmalar:
		Ekspertiza oldiga qo'yilgan savollarni tahlil qilish va talqin etish
		Dalillarni baholash va ularni asoslash
		Mantiqiy va izchil xulosa chiqarish
		Ilmiy asosda fikr yuritish
		Kasbiy terminologiyadan foydalangan holda yozma nutqni aniq va ravon ifodalash
		Murakkab ma'lumotlarni sodda va tushunarli bayon qilish
		Bilimlar:
		Sud ekspertizasi xulosasini shakllantirishning nazariyasi va metodologiyasi

		Dalillarni baholash va tadqiqot natijalarini tahlil qilish usullari
		Ekspert xulosalarini tayyorlashda qo'llaniladigan kasbiy terminologiya va uslubiy talablar
		Ekspert xulosalarining xolislik, ishonchlik va asoslanganlik mezonlari
		Mantiq va ilmiy xulosa chiqarish prinsiplari
		Xatoliklar va ularning oldini olish usullari
		Mehnat harakatlari:
B2.03.6- Sud ekspertiza xulosasini qonunchilik va metodik talablar asosida rasmiylashtirish		1. O'tkazilgan ekspert tadqiqotlari natijalarini umumlashtirish va tizimlashtirish
		2. Sud ekspertizasi xulosasining kirish, tadqiqot, tahliliy va yakuniy qismlarini belgilangan tartibda tayyorlash
		3. Ekspertiza davomida qo'llanilgan metodlar, usullar va texnik vositalarni xulosada aks ettirish
		4. Tadqiqot natijalari asosida ekspert oldiga qo'yilgan savollarga ilmiy asoslangan va xolis javoblar tayyorlash
		5. Sud ekspertizasi xulosasini amaldagi qonunchilik, idoraviy hujjatlar va metodik talablar asosida rasmiylashtirish
		6. Xulosaga ilova qilinadigan fotojadval, sxema, jadval va boshqa materiallarni tayyorlash hamda rasmiylashtirish
		7. Ekspertiza hujjatlarini elektron axborot tizimlariga kiritish va belgilangan tartibda saqlash
		Ko'nikmalar:
		Sud ekspertizasi xulosalarini tuzish va rasmiylashtirish
		Tadqiqot natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish
		Ekspertlik xulosalarini mantiqiy, asosli va tushunarli bayon etish
		Ekspertiza natijalarini hujjatlashtirish va rasmiylashtirish.
		Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda elektron hujjat aylanishi tizimlaridan foydalanish.
		Fotojadval, sxema va boshqa illyustrativ materiallarni tayyorlash.
		Kasbiy terminologiyadan to'g'ri foydalanish
		Bilimlar:
		Sud ekspertizasi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar
		Sud ekspertizasi xulosasining tuzilishi, mazmuni va rasmiylashtirish tartibi
		Ekspert xulosasiga qo'yiladigan qonuniy, uslubiy va protsessual talablar

		Ekspert tadqiqotlari natijalarini baholash va hujjatlashtirish usullari
		Ekspertlik faoliyatida qo'llaniladigan metodik tavsiyalar va standartlar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ekspertiza tadqiqoti natijalarini tahlil qilish jarayonida mustaqil, xolis va mas'uliyatli qaror qabul qilish hamda tahliliy yondashuvni ta'minlash
		2. Sud ekspertizasi xulosasida keltirilgan ma'lumotlar, tadqiqot natijalari va xulosalarning to'liqligi, ishonchliligi, xolisligi hamda ilmiy asoslanganligi uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olish
		3. O'z vakolati doirasida faoliyat yuritish va yakuniy ekspert xulosasini ustoz-ekspert yoki rahbar mutaxassis nazorati ostida tayyorlash
		4. Ekspertiza materiallari, tadqiqot natijalari va xizmat ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash hamda xizmat siriga rioya qilish uchun javobgarlik
		5. Tadqiqot natijalarining noto'g'ri talqin qilinishining oldini olish hamda ekspert xulosalarining dalillarga asoslangan bo'lishini ta'minlash
		6. Xulosa loyihasini ishlab chiqish jarayonida mustaqillikni saqlash va uni belgilangan tartibda rasmiylashtirish
		7. Ekspert xulosasining amaldagi qonunchilik, protsessual talablar va metodik hujjatlarga muvofiq rasmiylashtirilishi uchun javobgarlikni ta'minlash
		8. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida ekspertiza oldiga qo'yilgan savollarga mustaqil va asoslangan xulosalar shakllantirish
		9. Xulosa matnini tahrirlash va texnik tuzatish ishlarini mustaqil amalga oshirish
		10. Xulosa chiqarishda tashqi ta'sirlar, manfaatdor tomonlar yoki boshqa shaxslarning aralashuvisiz xolislik va mustaqillik tamoyillariga qat'iy rioya etish
		11. Murakkab yoki bahsli holatlarda ustoz-ekspert yoki rahbar mutaxassis bilan maslahatlashish zarurligini inobatga olish
		Mehnat harakatlari:
		1. Ekspertlik amaliyoti davomida uchraydigan muammolar va dolzarb masalalarni aniqlash
		2. Ekspert tadqiqotlari jarayonida yuzaga kelayotgan kamchiliklar, bo'shliqlar va murakkab holatlarni tahlil qilish
		3. Ilmiy tadqiqotga ehtiyoj mavjud bo'lgan yo'nalishlarni belgilash

B3.6- Ilmiy tadqiqot ishlarida ishtirok etish va tadqiqot natijalarini ekspertlik amaliyotiga tatbiq qilish	B3.01.6- Ekspertlik amaliyotida aniqlangan muammolar asosida ilmiy- tadqiqot mavzulari bo'yicha takliflar ishlab chiqish	4. Mavzularni dolzarblik, yangilik va amaliy ahamiyat nuqtayi nazaridan asoslash
		5. Ilmiy-tadqiqot mavzulari bo'yicha takliflar ishlab chiqish
		6. Hamkasblar va ilmiy xodimlar bilan muhokama qilish
		7. Ilmiy yo'nalishlar va ustuvor tadqiqot sohalarini aniqlashda ishtirok etish
		8. Tanlangan mavzularni keyingi ilmiy ishlar uchun rejalashtirishda qatnashish
		Ko'nikmalar:
		Axborotni tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish va tanqidiy baholash
		Amaliy muammolarni ilmiy muammo sifatida shakllantirish
		Ilmiy mavzularni asoslash va ifodalash
		Axborotni tahlil qilish va umumlashtirish
		Ilmiy izlanishlarga yo'naltirilgan fikrlash
		Muloqot va ilmiy muhokama olib borish
		Yangi g'oyalarni ishlab chiqish (kreativ fikrlash)
		Tadqiqot yo'nalishlarini rejalashtirish
		Bilimlar:
		Sud ekspertizasi sohasidagi dolzarb muammolar va rivojlanish tendensiyalari
		Ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish va olib borish metodologiyasi
		Ilmiy tadqiqot mavzusini shakllantirish mezonlari (dolzarblik, yangilik, amaliy ahamiyat)
		Mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha ekspertlik faoliyatining nazariy asoslari va amaliyoti
		Sud ekspertizasi sohasidagi ilmiy manbalar bilan ishlash usullari
		Sud ekspertizasi sohasidagi innovatsion yondashuvlar va zamonaviy ilmiy yo'nalishlar
		Ilmiy tadqiqot ishlarni rasmiylashtirish tartibi
	B3.02.6- Mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha ilmiy- tadqiqot ishlarida ishtirok etish	Mehnat harakatlari:
		1. Ilmiy-tadqiqot loyihalari va dasturlari bilan tanishish hamda ularda ishtirok etish
		2. Tadqiqot maqsadi, vazifalari va metodologiyasini aniqlashda qatnashish
		3. Ilmiy manbalarni (maqolalar, monografiyalar, standartlar) yig'ish va tahlil qilish
		4. Eksperimental yoki amaliy tadqiqot ishlarini bajarish
		5. Tadqiqot natijalarini qayd etish, qayta ishlash va tizimlashtirishda ishtirok etish
		6. Olingan natijalarni tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarishda ishtirok etish

		7. Ilmiy maqolalar, hisobotlar va tezislar tayyorlashda ishtirok etish
		8. Ilmiy seminar, konferensiya va muhokamalarda qatnashish
		Ko'nikmalar:
		Ilmiy izlanish olib borish va tadqiqot metodlarini qo'llash
		Axborotni izlash, tahlil qilish va umumlashtirish
		Eksperimental va amaliy ishlarni bajarish
		Natijalarni qayta ishlash va interpretatsiya qilish
		Ilmiy yozuv (maqola, hisobot) tayyorlash
		Turli manbalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, ularning ishonchliligi va asoslilikini tanqidiy baholash hamda mantiqiy xulosalar chiqarish
		Jamoadagi ilmiy hamkorlik qilish
		Zamonaviy texnologiyalar va dasturlardan foydalanish
		Bilimlar:
		Mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha ilmiy-nazariyalar va ilmiy yondashuvlar
		Zamonaviy ilmiy yutuqlar va innovatsiyalar
		Tadqiqot usullari va eksperimental metodlar
		Ilmiy-tadqiqotda statistik va analitik usullar
		Ilmiy ishlarni rasmiylashtirish qoidalari
		Akademik halollik va ilmiy etika prinsiplari
	B3.03.6- Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari yuzasidan metodik tavsiyalar hamda uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish	Mehnat harakatlari:
		1. Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini yig'ish va tahlil qilishda ko'maklashish
		2. Metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun asosiy xulosalarni ajratib olish
		3. Uslubiy qo'llanma tuzilmasini (bo'limlar, mavzular) ishlab chiqishda ishtirok etish
		4. Tavsiyalarni aniq, izchil va tushunarli shaklda bayon etish
		5. Amaliy qo'llash uchun algoritmlar, yo'riqnomalar va tartiblarni ishlab chiqishda ishtirok etish
		6. Hamkasblar bilan birgalikda muhokama qilish va takomillashtirish
		Ko'nikmalar:
		Ilmiy natijalarni amaliy tavsiyalarga aylantirish
		Axborotni tizimlashtirish va strukturaga solish
		Metodik va uslubiy hujjatlar tayyorlash
		Aniq va tushunarli yozma bayon qilish
		Analitik va tanqidiy fikrlash
		Jamoadagi ishlash va muhokama olib borish
		Standartlar va talablar asosida hujjat rasmiylashtirish
		Innovatsion yondashuvlarni qo'llash

		Bilimlar: Sud ekspertizasi sohasidagi metodik va uslubiy hujjatlar Metodik tavsiyalar va qo'llanmalar tuzish prinsiplari Tegishli mutaxassislik bo'yicha zamonaviy nazariy yondashuvlar va amaliyotda qo'llaniladigan metodikalar Standartlashtirish va normativ talablar Ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish mexanizmlari Hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalari
	B3.04.6- Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini tahlil qilish, umumlashtirish va amaliyotga tatbiq etish	Mehnat harakatlari: 1. Ilmiy-tadqiqot natijalarini o'rganish va ularning amaliy ahamiyatini baholash 2. Amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan yangi metodlar, usullar va yondashuvlarni aniqlash 3. Mavjud ekspertiza jarayonlari bilan ilmiy yangiliklarni solishtirish 4. Yangi usullarni joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish 5. Ilmiy-tadqiqot ishlarini amaliyotda qo'llash natijalarini monitoring qilish va baholash 6. Joriy etilgan yondashuvlar samaradorligini tahlil qilish va takomillashtirish Ko'nikmalar: Ilmiy tadqiqot natijalarni amaliyotga moslashtirish Innovatsion fikrlash va yangi yondashuvlarni qo'llash Analitik va tanqidiy baholash Ilmiy tadqiqot metodlarini solishtirish va tanlash ilmiy-tadqiqot ishlarida o'quv va tushuntirishlar (trening) olib borish Hujjatlar bilan ishlash va ularni yangilash Ilmiy-tadqiqot jarayonlarni monitoring qilish va natijalarini baholash Jamoadi ishlash va o'zgarishlarni boshqarish Bilimlar: Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi va natijalarni baholash asoslari Sud ekspertizasi metodlari va ularning amaliy qo'llanilishi Innovatsiyalarni joriy etish prinsiplari Metodik hujjatlar va standartlashtirish talablari Mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha zamonaviy ilmiy yutuqlar va innovatsion yondashuvlar Sifat nazorati va validatsiya asoslari Ekspertlik amaliyotining mavjud tartib va jarayonlari
		1. Ilmiy-tadqiqotlar doirasida to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi, to'liqligi va xolisligini

	Mas’uliyat mustaqillik:	va	ta’minlash uchun shaxsiy javobgarlikni o’z zimmasiga olish
			2. Ilmiy tadqiqotlarda foydalaniladigan ma’lumotlar, manbalar va natijalarning to’g’ri qo’llanilishi hamda ilmiy etika talablariga rioya etilishini ta’minlash
			3. Ilmiy manbalarni mustaqil izlash, tanlash va ularni tahlil qilish
			4. Tadqiqot jarayonida oddiy va standart vazifalarni mustaqil bajarish
			5. O’z vakolati doirasida ekspertlik amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish
			6. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini belgilangan dastur va metodikalar asosida mustaqil amalga oshirish hamda zarur hollarda ilmiy rahbar yoki mutaxassislar bilan hamkorlik qilish
Texnik va/yoki texnologik talab:			Mutaxassisliklarga oid asbob-uskuna, kompyuter texnikalar Interaktiv platformalar sud ekspertiza: E-ekspertiza, smart office, one ID Huquqiy va elektron ma’lumotlar bazalari Tadqiqot uchun statistik va analitik dasturlar: Excel Onlayn seminar va videokonferensiya vositalari: Zoom, Google Meet, Microsoft Teams

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartning rekvizitlari

1.	Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining tasdiqlash hujjatlari:	Huquq, arxiv va davlat xizmatlari sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashining 2026-yil 18-iyundagi 3-son bayoni
2.	Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining xulosasi:	KS-0161-son xulosa, 11.06.2026
3.	Kasbiy standart talqini va ishlab chiqilgan sanasi:	1.0-talqin, 26.05.2026
4.	Taxminiy qayta ko'rib chiqish sanasi:	25.05.2031

5.2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga mas'ul tashkilot

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi

(tashkilot nomi)

Markaz direktori

Xalilov Akram Utamurodovich

(rahbarning lavozimi, imzosi va F.I.O.)

5.3. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1.	Respublika sud ekspertiza markazi Iste'mol mahsulotlari va ichimlik suvi tarkibini tahlil qilish laboratoriyasi mudirasi	Saitova Niyyora Sobirjonovna
2.	Respublika sud ekspertiza markazi Sifat menejmenti bo'limi boshlig'i	Tosheva Dinara Muzrafovna
3.	Respublika sud ekspertiza markazi Sud-kompyuter-texnikaviy ekspertizasi bo'limi boshlig'i	Ataniyazov Doniyor Shonazarovich
4.	Respublika sud ekspertiza markazi Tashkiliy-nazorat va tahlil bo'limi bosh mutaxassisi	Jumaniyozov Azamat Kenjayevich
5.	Respublika sud ekspertiza markazi Sud-avtotexnika ekspertiza laboratoriyasi bosh eksperti	Abdumajidov Umidjon Abdumannob o'g'li
6.	Respublika sud ekspertiza markazi Materiallar, ashyolar, buyumlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasining bosh eksperti	Talipova Iroda Ermaxamatovna
7.	Respublika sud ekspertiza markazi Sud-qurilish-texnik ekspertizasi bo'limi yetakchi eksperti	Madaminov Oyatillo Shukrullo o'g'li
8.	Respublika sud ekspertiza markazi Yong'in-texnik ekspertizasi laboratoriyasi katta eksperti	Pardaboyev Axror Dehqonboy o'g'li
9.	Respublika sud ekspertiza markazi Sud-ballistika va izshunoslik ekspertizasi laboratoriyasi katta eksperti	Yo'ldoshev Akromjon Alijon o'g'li
10.	Respublika sud ekspertiza markazi Inson resurslari bo'limi katta noziri	Normatova Feruza Baxtiyarovna
11.	Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi	Buronova Yulduz Sadridin qizi



**HUQUQ, ARXIV VA DAVLAT XIZMATLARI
SOHALARIDA KASBIY MALAKALARNI
RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TARMOQ KENGASHI**

**KASBIY STANDART
SUD-EKSPERTLIK FAOLİYATI**